

**Andijon davlat pedagogika insituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
stajyor-o'qituvchisi Ikromov Maxamadyusub Tursunali o'g'lining "Botanik
terminlarning etnomadaniy tadqiqi" mavzusidagi ilmiy maqolasiga**

TAQRIZ

Zamonaviy tilshunoslik paradigmasida leksik birliklarni, lingvokulturologiya, etnolingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, medialingvistika kabi integratsion yo'nalishlarda ham tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Ayniqsa, botanik terminlarni turli aspektlarda tadqiq qilish orqali o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga ehtiyoj ortib bormoqda.

Ushbu maydonga qaratilgan ilmiy ishlardan biri O'zbek tili va adabiyoti kafedrası stajyor-o'qituvchisi Ikromov Maxamadyusub Tursunali o'g'lining "Botanik terminlarning etnomadaniy tadqiqi" mavzusidagi ilmiy maqolasi hisoblanib, ushbu maqolada terminologik tizimda alohida ahamiyat egallovchi botanik terminlarning ahamiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Mazkur maqola o'zbek tilidagi botanik terminlarning shakllanishi, rivojlanishi va ularning xalq dunyoqarashi, urf-odatlari, qadriyatlar bilan bog'liqligini ochib berishga qaratilgan. Muallif o'simlik nomlarining lug'aviy-ma'no qatlamlari bilan bir qatorda, ularning etnomadaniy ildizlariga ham chuqur e'tibor qaratgan.

Maqolaning kirish qismida Til insonning o'ziga xosligini, mavjudligini hisobga olgan holda uning olam bilan munosabati haqidagi fikrlar bayon etilgan. Ilmiy ishning tarkibiy qismlari bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, tartibli va tuzilishiga ko'ra yaxlit bir tizimni tashkil qiladi. Ilmiy mavzu yuzasidan nazariy ma'lumotlarni dalillash uchun misollar keltirilib, tahlil qilingan. Xalq og'zaki ijodi, urf-odat, marosimlar va tabobatga oid asarlardan to'plangan materiallar nazariy ma'lumotlarga muvofiq asoslab berilgan. Maqola so'nggida tadqiqotchi o'zining mavzu yuzasidan shaxsiy xulosalarini keltirib o'tgan.

Tadqiqotda o'zbek xalqining an'anaviy bilimlari, xalq tabobati, qadimiy tasnif tizimlari asosida shakllangan o'simlik nomlari misolida til va

madaniyatning uzviy bog'liqligi yoritiladi. Maqolada etnolingvistik yondashuv, leksik-semantik tahlil, tarixiy metod kabi metodlar samarali qo'llanilgan.

Maqola tuzilmasi izchil: kirish, adabiyotlar tahlili va metodologiyasi, natija va muhokama hamda xulosa qismlari aniq ajratilgan. Ilmiy uslub saqlangan, adabiyotlar ro'yxati keltirilgan, iqtiboslar manbasi ko'rsatilgan. Terminlar izohi va ularning madaniy konnotatsiyasi chuqur tahlil qilingan. Ikromov Maxamadyusub Tursunali o'g'lining "Botanik terminlarning etnomadaniy tadqiqi" mavzusidagi ilmiy maqolasi barcha talablarga javob beradi va uni tugallangan ilmiy ish sifatida nashrga tavsiya etaman.



Andijon davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti,
f.f.d.(DSc) F.F.Usmanov

